



## INKLYUZIV TA'LIM TUSHUNCHASI VA UNING MAZMUNI-MOHİYATI

Adhamova Marjona Navro'z qizi

Navoiy davlat universiteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi  
(maktabgacha ta'lim) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitishning yangi shakli inklyuziv ta'lim mazmuni, mohiyati, rivojlanish bosqichlari va haqida to'xtalib o'tiladi.

**Annotation.** This article discusses the essence, content, and stages of development of inclusive education as a new form of educating children with disabilities.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lim, “*inclusion*”, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar, segregatsiya, integratsiya, uyg'unlashish, diskriminatsiya, inklyuziya.

**Keywords:** inclusive education, inclusion, children with special educational needs, segregation, integration, adaptation, discrimination, inclusion.

Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri barcha bolalar uchun teng imkoniyatlarni yaratishdir. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda maxsus ehtiyojli bolalarning umumiy o'rta ta'lim tizimiga integratsiyasini kuchaytirish borasida qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Bu esa, inklyuziv ta'limni milliy ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylantirmoqda.

Mamlakatimizda inklyuziv ta'lim siyosati jadallik bilan rivojlanar ekan, 2020 yil 23-sentabrda 637-son bilan qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunning 20-moddasida aynan inklyuziv ta'limga bag'ishlangan bo'lib, bu moddada “Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan”, deyiladi. Shuningdek, mazkur moddada “Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi. Inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi”, deya qayd etilgan.



Mazkur Qonun doirasida 2020-2025-yillarga mo'ljallangan "Inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi" hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son Qarori qabul qilindi.

Ta'lim sohasida "inklyuziya" tushunchasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. "Inklyuziv" (inglizcha *inclusion*) - **"uyg'unlashish", "hamma uchun"** degan ma'noni anglatadi.

Inklyuziv ta'lim – alohida ehtiyoji bo'lgan va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni (**diskriminatsiyani**) bartaraf etish, maxsus ta'limga muxtoj bolalar, o'smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

Inklyuziv ta'lim – bu o'quv jarayonini barcha bolalarning ruhiy, jismoniy aqliy, etnik va shunga o'xshash xususiyatlarni hamda maxsus ta'lim ehtiyojlarini inobatga olgan holda, ularni boshqa tengdoshlardan ajratmagan holda, yashash joylariga yaqin va qulay bo'lgan sharoitlarda tashkil etishdan iborat.

So'ngi yillarda alohida ehtiyoji mavjud bolalar ta'limiga berilayotgan e'tibor ushbu sohadagi ilmiy tadqiqotlar ko'lamini oshirmoqda. Jahon olimlari tomonidan ko'plab tadqiqotlar o'tkazilib, ushbu sohada qator ilmiy ishlar amalga oshirilib kelmoqda. M.Mason o'z tadqiqotlarida Buyuk Britaniyada inklyuziv ta'limning shakllanishi, davlat siyosati va amaliy mexanizmlarini tahlil qilgan. U inklyuziv yondashuvning ta'lim sifatiga ta'sirini yoritadi. R.Rieser olib brogan ishlarida nogironligi bor shaxslar masalasiga ijtimoiy model asosida yondashib, inklyuziv ta'limda tenglik va diskriminatsiyani bartaraf etish masalalariga alohida etibor qaratadi. J.Morris izlanishlarida inklyuziv ta'limni ijtimoiy siyosat bilan bog'liq holda o'rganib, alohida ehtiyojli bolalarning ta'lim tizimiga to'liq integratsiyalashuvi muammolarini tahlil qilgan. M.A.Vinzer ilmiy tadqiqotlarida maxsus ta'lim tizimining tarixiy rivojlanishini yoritib, imkoniyati cheklangan shaxslar ta'limida izolyatsiyadan inklyuziyaga o'tish jarayonini asoslab bergan. Z.Weigand tadqiqotlarida dunyo miqyosida maxsus ta'lim tizimlarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini qiyosiy tahlil asosida yoritib bergan. P.Haug ham o'zining tadqiqotlarida inklyuziv ta'limning pedagogik mohiyatini ochib uning ta'lim jarayoniga ta'siri, o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va ta'lim muhitini moslashtirish masalalarini



yoritadi. L.Vislie o'zining ilmiy izlanishlarida integratsiya va inklyuziya tushunchalarini farqlab, inklyuziv ta'limning global tendensiyalarini hamda xalqaro tajribasini tahlil qilgan.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun maxsus maktablar XVIII asr o'rtalarida ko'zi ojiz, kar va keyinchalik o'rganish imkoniyati cheklangan bolalar uchun paydo bo'lgan xayriya muassasalari asosida ildiz ota boshladi. Dunyodagi birinchi maxsus maktablardan biri Parijdagi **Institut National des Jeunes Aveugles** bo'lib, u 1784-yilda tashkil etilgan. Bu dunyodagi birinchi ko'zi ojizlar maktabi edi. XVIII asr oxirlarida shotlandiyalik Tomas Braidvud tomonidan Edingburgda ham ko'zi ojizlar maktabi tashkil etilgan.

XIX asrning oxirlaridan boshlab majburiy ta'limi va o'quvchilar bilimini baholashning yangi tizimlari joriy etilishi jarayonida ham imkoniyati cheklangan bolalarning ta'limi masalalari bir muncha chetda qolib ketdi. Britaniyada 1892-yil Lesterda "zaif" o'quvchilar uchun birinchi maxsus maktab, 1905-yilda Manchestrda "nogiron" bolalar uchun birinchi maxsus maktab ochildi va 1918-yilga kelib jismonan "nuqsonli" bolalar uchun 60 ta kata kunduzgi maktab va 35 ta maktab-internat tashkil etilgan.

Xalqaro tajribalarga asoslangan holda, inklyuziv ta'lim tizimi rivojlanishining uch davrini alohida ko'rsatib o'tsa bo'ladi:

Birinchi davr, 1970-yillargacha ta'lim oluvchilarning **segregatsiyasi** (alohida yordamga muhtoj bolalarni umumiy ta'limdan alohidalash va ularga maxsus maktab va internatlarda ta'lim berish);

Ikkinchi davr, 1970-1990-yillar davomida ta'lim oluvchilarning **integratsiyasi** (alohida yordamga muhtoj bolalar uchun umumta'lim maktablarida alohida sinflarni tashkil etish);

Uchinchi davr, so'ngi yillardagi **inklyuziv ta'lim** (alohida yordamga muhtoj bolalar boshqa bolalar bilan umumta'lim maktablarida bir sinfda tahsil olishi.)

Inklyuziv ta'lim g'oyasi O'zbekistonda 1996-yilda kirib kelgan. O'zbekiston Respublikasida nogironligi bo'lgan bolalar umumta'lim maktablari yoki ixtisoslashtirilgan maktablar o'rtasida tanlov qilish huquqiga ega. Respublikada 185 ta ixtisoslashtirilgan maktab-internat bo'lib, ularning rivojlanishiga davlat umumiy ta'lim maktablaridan kam e'tibor qaratmaydi.

Inklyuziv ta'lim barcha bolalar, nuqsonlarining og'irligidan qat'iy nazar, ta'lim tizimining ajralmas bir qismidir. Shuningdek inklyuziv ta'limni rivojlantirish borasida jahon hamjamiyatlari bilan ham qator hamkorlik dasturlari amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan 1996-yilning noyabr oyida YUNESKO ishlari bo'yicha



O‘zbekiston Milliy komissiyasi tashabbusi asosida Toshkentda “Maxsus ta’lim sohasida inklyuziv usullar” mavzusida milliy o‘quv dastur muvaffaqiyatli amalga oshirildi. 1998-yilning oktyabr oyida Buxoro shahrida ushbu mavzu bo‘yicha YuNESKO, YuNISEF, Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti va Xalqaro mehnat tashkiloti bilan hamkorlikda mintaqaviy anjuman tashkil etildi. 2014-2016-yillar davomida esa, Yevropa Ittifoqi hamkorligida o‘qituvchilarni inklyuziv ta’lim amaliyoti bo‘yicha o‘qitish loyihasi amalga oshirildi hamda o‘quvchilar va ota-onalar uchun inklyuziv ta’lim o‘quv dasturlari ishlab chiqildi, 5 ta tajriba resurs markazi va 15 ta tajriba maktablari tashkil etildi.

2022-yil oktabr oyida bir necha hafta davomida USAID tomonidan SHARE hamkorlik shartnomasi doirasida ishlayotgan Notrdam universiteti tadqiqotchilari mahalliy ekspertlar bilan birgalikda Toshkent, Sirdaryo va Namangan hududlarida diagnostik tizimli taxliliy tadqiqot o‘tkazdi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi O‘zbekistonda alohida ta’lim ehtiyojlari mavjud bolalar ta’limi holati va sifatini baholash hisoblanib, AQSH Xalqaro taraqqiyot agentligi uchun ushbu sohaning O‘zbekistondagi rivojlanish darajasini tahlil etish maqsadida amalga oshirildi. Albatta, ushbu tadqiqot O‘zbekistonda so‘nggi yillar davomida amalga oshirilgan turli siyosiy tashabbuslar, o‘qituvchilarni inklyuziv ta’lim amaliyotiga o‘rgatish bo‘yicha loyha dasturlari hamda “2020-2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi” tashabbuslarini alohida e’tirof etgan holda, sohadagi mavjud yutuq va kamchiliklarni aniqlab, istiqboldagi harakatlar uchun muhim taklif va xulosalar berdi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkin-ki, inklyuziv ta’lim – har bir bolaning individual ehtiyojlari, imkoniyatlari va rivojlanish darajasidan qat’i nazar sifatli ta’lim olish huquqini ta’minlaydigan zamonaviy pedagogik yondashuvdir. Uning mazmuni jamiyatda tenglik, adolat va ijtimoiy integratsiyani mustahkamlashga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilarning hamkorlikda o‘qishi, o‘ziga ishonchi va ijtimoiy faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Inklyuziv muhitda ta’lim jarayonining markazida bola turadi: o‘quv dasturlari moslashtiriladi, pedagoglar esa qo‘llab-quvvatlovchi, individual yondashuvga asoslangan metodlarni qo‘llaydi. Shu bois inklyuziv ta’lim nafaqat maxsus ehtiyojli bolalar, balki barcha o‘quvchilar uchun samarali va ijobiy rivojlanish imkoniyatini yaratadi. Inklyuzivlikni amalda joriy etish ta’lim tizimining insonparvarlik tamoyillariga mos takomillashuvini ta’minlaydi hamda jamiyatning ijtimoiy barqarorligini mustahkamlaydi.



### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun 2020-yil 23-sentabr 637-son. Lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son Qarori (13.10.2020). Qalampir.uz
3. R.Sh.Shomahmudova. "Maxsus va inklyuziv ta'lim" Uslubiy qo'llanma. Toshkent."CHASHMA PRINT"-2021.
4. I.Y.M "Inklyuziv ta'lim" darslik. Toshkent-"BEST-PUBLISH"-2024.
5. Mason.M. Inclusive education in the United Kingdom: Policy and practice. London: Routledge.(1999).
6. Rieser.R. Disability, equality and education. London: Disability Equality in Education. (2001).
7. Morris.J. Inclusive education: Disability, policy and practice. Bristol: Policy Press. (2005).
8. Winzer.M.A. The history of special education: From isolation to integration. Washington, DC: Gallaudet University Press. (1993). Confronting difference: An excursion through the history of special education. Boston: Pearson Education. Weigand.Z. Special education systems in a global context. Berlin: Springer.(2002).
9. Haug.P. Pedagogical consequences of inclusion. International Journal of Inclusive Education, 2(1), 25-36. (1998). Understanding inclusive education: Ideals and reality. Scandinavian Journal of Disability Research, 19(3), 206-217. (2017)
10. Vislie.L. From integration to inclusion: Focusing global trends. European Journal of Special Needs Education, 18,(1), 17-35. (2003).